

**SOLIQ TIZIMI TARAQQIYOTIDA SOLIQ RAQOBATI VA HAMKORLIK,
SOLIQLARDAN QOCHISH VA SOLIQ BAZASI YANGI REZARVLARI MASALALARI
KOMPLEKS IJROSINI TA’MINLASH**

Oymatova Gulnur Mirjamolovna

Toshkent Moliya Instituti

SST-5 guruh magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zining investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida davlatlar tomonidan olib borilishi mumkin bo‘lgan soliq raqobati, uning oqibatlari, afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqilgan, soliq raqobatidan qochish uchun o‘rnatilishi mumkin bo‘lgan soliq hamkorliklari va ular doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, soliq bazasining mobilligi sharoitida soliqdan qochish holatlarini oldini olish va adolatli soliq siyosatini yuritish uchun ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish choralari qisqacha yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *soliq raqobati, xalqaro soliq munosabatlari, soliq bazasining mobilligi, ikki tomonlama soliqqa tortish, soliq hamkorligi, ofshor hududlar.*

Abstract. *This article discusses tax competition that can be carried out by states in order to increase their investment attractiveness, its consequences, advantages and disadvantages, tax cooperation that can be established to avoid tax competition and the measures implemented in them, cases of tax evasion in the context of the mobility of the tax base, measures to eliminate double taxation in order to prevent tax evasion and conduct a fair tax policy are briefly highlighted.*

Key words: *tax competition, international tax relations, mobility of the tax base, double taxation, tax cooperation, offshore territories.*

Kirish

Raqobat har doim sog‘lom bozor iqtisodiyoti uchun juda zarur, biroq agar gap o‘zlari taqdim etgan soliq rejimi orqali investorlarni jalb qilishga intilayotgan hukumatlar o‘rtasidagi raqobat haqida ketganda bu mulohaza har doim o‘zini oqlaydi deb aytib bo‘lmaydi. Soliq raqobatini bir qator afzallik va kamchiliklari mavjud.

Ko‘pgina mamlakatlar o‘z iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshiradi. Bunday tadbirlardan biri soliq imtiyozlari berish yoki soliq stavkalarini pasaytirishdir. Ba’zi soliq imtiyozlari chet el firmalarini past stavkada soliqqa tortishni nazarda tutsa, boshqalari ularni soliq to‘lovlaridan ozod qilishni yoki ma’lum bir muddatga soliq ta’tillari berishni ko‘zda tutadi. Xo‘sh bunday chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotiga doim ham foyda keltiradimi?

Gap shundaki, soliq sohasida raqobatlashish mamlakatlarni o'z daromadlarini pasaytirish natijasida oxir-oqibat boshqa, odatda, moliyalashtirish ko'proq muammoli va nazorat qilish qiyin bo'lgan manbalarga tayanishga yo juda zarur bo'lgan davlat xarajatlarini qisqartirishga yoki har ikkalasini ham amalga oshirishga majbur qilib qo'yadi.

Bu esa rivojlanish bosqichidagi mamlakatlar uchun jiddiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin, sababi ular, ko'proq korporativ soliqlardan tushadigan daromadlarga tayanadi. Shu sababli, soliq raqobati ularni o'zlarining ushbu asosiy daromad manbaiga tahdid soluvchi soliq siyosatini amalga oshirishga majburlashi xavfini yuzaga keltiradi.

Boshqa tomondan ko'pchilik iqtisodchilar hukumatlar o'rtasidagi soliq raqobati behuda sarf-xarajatlarni qisqartirishi va boshqaruvni takomillashtirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Biroq, mamlakatlar chegaralari bilan cheklanmaydigan soliq bazalarining ko'chuvchanligi sharoitida bu afzallik mehnatdan olinadigan daromadlar, birja tovarlari bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalardan yoki ko'pincha kapitaldan olingan daromadlar doirasida kamroq namoyon bo'ladi.

Masalan transmilliy korporatsiyalar transfer narxlarini manipulyatsiya qilishlari va o'z daromadlarini yuqori soliq solinadigan mamlakatlardan past soliq solinadigan mamlakatlarga o'tkazishlari va sarmoya uchun mamlakat tanlashda boshqa soliqdan qochish vositalaridan foydalanishlari mumkin.

Shu jihatdan ham jahon mamlakatlarining soliqqa tortish sohasida hamkorlik qilishlari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bunday muammolarni muayyan darajada bartaraf etadi.

Adabiyotlar sharhi

Soliq raqobati - bu mamlakatlarning korporativ daromad solig'ining pastroq stavkalari, ayrim soliqlardan ozod qilish yoki boshqa imtiyozli rejimlarni taklif qilish orqali biznes va investitsiyalarni jalb qilish uchun bir-biri bilan raqobatlashadigan hodisa. Bu esa, mamlakatlar bir-biridan ustun bo'lishga intilishi natijasida soliqlar to'lovlarining pastga qarab tushib borish poygasiga olib kelishi mumkin, natijada hukumatlar uchun umumiy daromad kamayadi.

"Soliq raqobati" tushunchasi ilmiy va amaliy maydonda nisbatan yaqinda paydo bo'lgan bo'lib, hozirga qadar to'g'ridan-to'g'ri qonunchilik konsolidatsiyasiga ega emas.

Ta'kidlash joizki, soliq huquqi sohasi mutaxassislari soliq raqobatini to'laqonli yuridik institut sifatida ko'rmaydilar, bu esa uni ilmiy jihatdan ko'rib chiqish va tadqiqotlar asosida yanada takomillashtirish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Soliq raqobati odamlar kapital va/yoki mehnatni yuqori soliq yurisdiksiyasidan past soliq yurisdiksiyasiga o'tkazish orqali soliq yukini kamaytirishga qodir bo'lganda mavjud bo'ladi. Bunday migratsiya isrofgar hukumatlarni tartibga soladi va soliq stavkalarini pasaytiradigan va o'sishni rag'batlantiruvchi islohotlarni amalga oshiruvchi mamlakatlarga foyda keltiradi. Soliq raqobati bugungi jahon iqtisodiyotida

ayniqsa muhimdir va davom etayotgan o'zgarishlar ko'plab mamlakatlarni bozorga mos soliq siyosati zarurligiga ishonitirishga yordam beradi.

Biroq, iqtisodiy nazariyada bu hodisaning bir ma'noli, umumiy qabul qilingan ta'rifi hali ham mavjud emas. Soliq raqobati tarafdorlari ko'pincha Charlz Tibuning (1924-1968) 1956-yildagi "Mahalliy xarajatlarning sof nazariyasi" maqolasidan iqtibos keltiradilar, unda u soliqlar va davlat xizmatlarining turli kombinatsiyalarini tanlashiga to'g'ri keladigan soliq to'lovchilar o'zlari eng yaxshi kombinatsiyani olishlari mumkin bo'lgan yerga borishga moyilligini ta'kidlaydi [2]. Turli mamlakatlarda soliq stavkalaridagi farqlar anchagina sezilarlidir, chunki ular soliq to'lovchilarga ko'proq tanlov va shunga mos ravishda ularning ehtiyojlarini qondirish uchun ko'proq imkoniyatlar beradi. Bu hukumatlarning yanada samarali ishlashiga yordam beradi. Shunday qilib, soliqlarni uyg'unlashtirish choralari ko'pincha samarasiz bo'ladi.

Jon D. Uilson soliq stavkalari o'rtasidagi katta farqlarni yo'qotish nuqtai nazaridan soliq raqobatining boshqa bir ta'rifini taklif qiladi: "Soliq raqobati bu jamoatchilik ehtiyojlarini ta'minlash darajasi va soliq stavkalari juda past bo'lgan vaziyat, ya'ni hukumat har bir hududdan ushbu ehtiyojlarining ta'minlanish darajasini oshirishni talab qilish orqali aholi farovonligi darajasini sezilarli darajada ko'tarishi mumkin. Lekin, aslida, stavkalarni oshirmasdan turib, bunga erishish juda qiyin. Ba'zilar soliq raqobatini samarasiz davlat xarajatlariga ta'sir qilish va shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini samarali taqsimlashning foydali vositasi deb hisoblasa, boshqalari yangi raqobat muvozanati davlat xarajatlarining nosog'lom va haddan tashqari past darajasiga yoki xavfli darajada yuqori darajadagi davlat xarajatlariga olib keladi, deb hisoblashadi." [2] Davlatlar mehnat resurslari, firmalar yoki kapitalni joylashish uchun va hatto xaridorlar uchun ham raqobatlashishi mumkin. Shuningdek, hokimiyatning ayni bir soliq bazasiga ega turli darajalari (federal, mintaqaviy, munitsipal) o'rtasida "vertikal soliq raqobati" kuzatilishi mumkin. "Gorizontal soliq raqobati"da yurisdiksiyalar bir xil darajada (mobil omillar uchun raqobat) raqobatlashadi

Soliq raqobatining dastlabki nazariyalari haddan tashqari soddalashtirilgan tadqiqot vositalari bilan tavsiflangan. Masalan, Oats kuchli soliq raqobati sharoitida hukumat o'z xarajatlarini moliyalashga qodir emasligini aytgan. Uning modelining kamchiliklari, birinchidan, u haddan tashqari nazariyashtirilganligi va voqelikning ko'p jihatlarini hisobga olmaganligi bo'lsa, ikkinchidan, Yevropa Ittifoqi va boshqa ko'plab mamlakatlarda yuzaga kelgan vaziyatni tushuntirish uchun ko'p foyda bermaydi. Shuning uchun 1987-yilda Jon D. Uilson ushbu modelning dalillar bazasining haddan tashqari soddaligiga e'tibor qaratdi va mintaqalararo savdoni tahlilga kiritish kerakligini ta'kidladi. Natijada, muallif kapital solig'i ikki yoki undan ortiq mintaqalar o'rtasida ijtimoiy nafaqalarning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi va bu samarasiz taqsimlash samarasiz savdo tuzilmasini keltirib chiqaradi degan xulosaga keladi [2].

Bu xulosa Zdrov va Miekkovskiyning mashhur asarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, u kapitalning harakatchanligi va soliq raqobati natijasida jamoat tovarlari yetishmasligiga ishora qiladi [3]. Shunday qilib, yuqoridagi barcha nazariyalar bir xil xulosaga keladi - savdo va kapitalning xalqaro harakatchanligi mobil omillar uchun raqobatga olib keladi, jamoat tovarlarini samarali taqsimlashga zarar keltiradi va shuning uchun uni soliqni tartibga solish - uyg‘unlashtirishga qisqartirish kerak.

Boshqa yo‘nalish tarafdorlari - soliq stavkalari uchun minimal chegarani o‘rnatish Ravi Kanbur va Maykl Kin davlatlarning kattaligidagi va shunga ko‘ra ularning iqtisodiy tizimlarida juda katta farqlar mavjudligiga ishora qiladilar. Ular dastlab “turli mamlakatlarning soliq qonunchiligini umumiy maxrajga keltirish ularning mustaqil soliq tizimlarini qurish salohiyatini shubha tug‘ostiga qo‘yadi”, deb hisoblashdi [4]. Ikki alohida davlat o‘zlarining iqtisodiy tizimlarini integratsiyalashganda, soliq stavkalarini uyg‘unlashtirishga umuman intilmasligi kerak, aksincha, eng kam soliq stavkalari qo‘llanilsa, ikkalasi ham foyda ko‘radi. Strategik nuqtai nazardan, yirik mamlakatlar soliqqa tortishning yuqori darajasini saqlab qolishadi, kichiklari esa oddiy uyg‘unlashtirishdan ko‘ra samaraliroq bo‘lgan belgilangan chegaraga intiladi.

Mamlakatlararo soliqni tartibga solishning yo‘qligi hech qanday xavf tug‘dirmaydi, balki faqat potensial foyda keltiradi degan konsepsiyani ham e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Ushbu konsepsiya tarafdorlarini shartli ravishda ikkita lagerga bo‘lish mumkin: mamlakatlar o‘rtasidagi erkin muvofiqlashtirish tarafdorlari, agar maqsadga muvofiq bo‘lsa va cheklanmagan soliq raqobati tarafdorlari. Bu yerda tahdid shundaki, soliq raqobati kapitalga har qanday soliqlarning bekor qilinishiga, demak, jamiyatning ijtimoiy ta‘minlanish darajasining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, olimlarning fikriga ko‘ra, mamlakatlararo soliqlarni muvofiqlashtirishning afzalliklari aniq.

Va nihoyat, milliy soliq tizimlarini rivojlantirishning muqobil yo‘li - bu erkin soliq raqobati bo‘lib, uning mohiyatini quyidagicha bayon etish mumkin: soliq raqobati davlat daromadlarini kamaytiradi va hukumatlar barqaror moliyaviy tizimni saqlash uchun ortiqcha soliqlarni va samarasiz xarajatlarni kamaytirishga majbur bo‘ladilar. Bu xulosa jamoat tanlovi nazariyotchilarining asarlarida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Garchi bu fakt uning turli qo‘shimchalari kabi murakkab bo‘lmasa-da, u davlat daromadlarining qisqarishi jamiyat farovonligiga mutlaqo ta‘sir qilmasligi ehtimolini nazarda tutadi.

M.A. Troyanskaya soliq raqobatini "soliq bazasini taqsimlash sohasida davlat, mintaqaviy va mahalliy darajalarda davlatning soliq siyosatini amalga oshirishga qaratilgan ommaviy-huquqiy subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir qilish usuli" deb hisoblaydi [11].

G.V. Kolesnik va N.A. Leonovanning ta‘kidlashicha davlatlar va mintaqaviy hokimiyatlar o‘rtasidagi soliq raqobati - bu mobil firmalarni, moliyaviy va mehnat resurslarini o‘zlari nazorat qiladigan yurisdiksiyalarga jalb qilish maqsadida soliq

siyosatini yumshatish (soliq stavkalarini pasaytirish, soliq imtiyozlari berish) jarayonidir [7].

Soliq raqobati haqida gapirganda, M.R. Pinskaya shunday deydi, “u har qanday davlatning ikkita faoliyat sohasiga ta’sir qiladi: ichki, hududiy soliq solinadigan baza boshqaruv darajalari o’rtasida qayta taqsimlanganayotgan vaqtda mintaqalar va mahalliy hokimiyatlar o’rtasida raqobat yuzaga kelganda, hamda tashqi, davlat soliq tushumlari migratsiyasi muammolariga duch kelgan vaqtda global soliq raqobatida faol ishtirok etganda [10].

Tadqiqotlar metodologiyasi

Maqolada iqtisodiy tadqiq etish metodikasi, tizimli tahlil, monografik tahlil, taqqoslash kabi usullardan foydalanildi, “soliq raqobati” bo’yicha tizimli adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Shu o’rinda ta’kidlash kerakki, “soliq raqobati” iqtisodiy tushuncha sifatida turli adabiyotlarda “soliq hamkorligi”, “xalqaro soliq munosabatlari”, “ikki yoqlama soliqqa tortish” kabi tushunchalar bilan bir tarkibda ko’p uchraydi.

Tahlil va analiz


Umuman olganda soliq raqobati bu soliq-huquqiy institut hisoblanadi, ya’ni, u davlat byudjet tizimining barcha darajadagi byudjetlariga soliq tushumlarining yangi manbalarini shakllantirish uchun soliq solinadigan bazani jalb qilishning asosiy vazifasi bo’lgan turli xil hududiy darajadagi subyektlar o’rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarni yaratib beradi.

Soliq raqobatining mohiyatini o’rganish uni turli asoslar bo’yicha farqlash imkonini beradi. Hududiy belgilari bo’yicha quyidagi soliq raqobati turlarini ajratib ko’rsatish mumkin (1-rasm):

- xalqaro soliq raqobati. Jahon hududida muhim afzalliklaridan biri past soliq stavkalari, past soliqli yurisdiksiyalar bo’lgan offshor hududlar, maxsus va erkin iqtisodiy zonalarining mavjudligi o’z iqtisodiyotiga investitsiya oqimlarini jalb qilish uchun doimo kurashishga majbur bo’lgan davlatlar o’rtasida soliq raqobati vaziyatini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Bunda shuni ta’kidlash kerakki, xalqaro soliq raqobati bir davlat siyosatining boshqa davlatga ta’siri oqibatidir. Demak, agar A mamlakat o’z hududida ma’lum bir qulay soliq sharoitlarini joriy qilsa, u B mamlakatni, agar u investitsiyalarni jalb qilishdan manfaatdor bo’lsa, yanada qulayroq soliq shartlarini (ba’zida o’z iqtisodiyotiga zarar yetkazadigan bo’lsa ham) o’rnatishga majbur qiladi.

Soliq raqobati



1-rasm. Hududiy belgilari bo'yicha quyidagi soliq raqobati turlari

Hozirgi vaqtda, masalan, QQS stavkasi O'zbekistonda 12% (imtiyozli stavka - 0), Rossiya Federatsiyasida 20% (10 va 0), Qozog'istonda - 12% (0) , Belarus Respublikasida - 20% (10 va 0), Armanistonda – 20%, Qirg'izistonda – 12% (0). Shu o'rinda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi qonunchiligi a'zo davlatlarda soliq stavkalaridagi farqni tenglashtirishga yo'naltirilganligini ta'kidlash lozim. Shunday qilib, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to'g'risidagi shartnomaning 3-qism 71-moddasi eng sezgir aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz stavkalarini uyg'unlashtirishni (yaqinlashtirishni) nazarda tutadi;

- mintaqaviy soliq raqobati (davlat ichidagi muayyan mintaqalar, hududiy birliklar o'rtasidagi raqobat). Raqobatning ushbu turi davlat miqyosida o'rnatilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq elementlarini mamlakatning Soliq kodeksiga muvofiq mintaqaviy darajada belgilash imkoniyati to'g'risidagi qoidalarga asoslanadi;

- mahalliy soliq raqobati – mahalliy birliklar (viloyat, tuman, shahar va shu kabilar) o'rtasidagi raqobat, mintaqaviy raqobatga o'xshash mohiyatga ega.

Mintaqaviy va mahalliy soliq raqobati faqat davlat qonunchiligi tegishli hududlarga ma'lum bir "soliq" mustaqilligini beradigan federal davlatlarda kuzatilishi mumkin. Bunday soliq federalizmini alohida hududlarni rivojlantirish vositasi sifatida ko'rish mumkin.

Soliq raqobati har qanday davlat faoliyatining ikki sohasiga ta'sir qiladi: ichki, hududiy soliq solinadigan baza boshqaruv darajalari o'rtasida qayta taqsimlanganayotgan vaqtda mintaqalar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida raqobat yuzaga kelganda, hamda tashqi, davlat soliq tushumlari migratsiyasi muammolariga duch kelgan vaqtda global soliq raqobatida faol ishtirok etganda.

Bizning mahalliy ilmiy va o'quv adabiyotlarimizda soliq raqobati masalalari yetarlicha yoritilmaganligicha qolmoqda va mavjud tadqiqotlar asosan xalqaro soliq raqobatiga taalluqlidir.

Xalqaro soliq raqobatining mohiyati ko'plab fiskal yurisdiksiyalarning ham ma'lum bir fiskal hududdagi, ham chet eldagi operatsiyalardan olingan daromadlarini soliqqa tortish huquqiga ega bo'lish uchun "global soliq to'lovchilarni" (ikkalasi xo'jalik yurituvchi subyektlar - boshqa mamlakatlar rezidentlari va tashqi iqtisodiy faoliyat

subyektlarini) o'z milliy iqtisodiyotiga jalb qilish huquqi uchun raqobatlashishini anglatadi.

Xalqaro soliq raqobatining ikki shakli mavjud:

1) milliy soliq siyosatini o'zining nazariy soliq maktabi postulatlariga, shuningdek ilg'or xorijiy soliq nazariyalari va amaliy xorijiy tajribaga, nazariy istak va tavsiyalarga muvofiq soliq islohotlariga yo'naltirishga asoslangan adolatli soliq raqobati. Bunday raqobat, agar ma'lum bir mamlakatda uning hududida norezidentlar tomonidan olingan daromadlar va rezidentlarning global daromadlari bo'yicha soliqqa tortish rejimlarida sezilarli farqlar mavjud bo'lmaganda mavjud bo'ladi. Shu bilan birga, unda barcha soliq to'lovchilarning milliy soliq ma'muriyatiga istisnosiz hisobot berishlari, shuningdek, amalga oshirilayotgan xo'jalik operatsiyalarining fiskal shaffofligi kafolatlanadi;

2) biror yurisdiksiya ilgari mavjud soliq rejimini tubdan o'zgartirsa yoki rivojlangan dunyoda qabul qilingan soliqqa tortish tamoyillari va me'yorlaridan chetga chiqsa, buzg'unchi soliq raqobati yuzaga keladi. Shunday qilib, soliq raqobati biznes va savdoning joylashuvini buzilishiga, boshqa davlatlarning soliq bazasini qisqarishiga, soliq tizimining adolatliligi, betarafligi va ijtimoiy qabul qilinishiga putur yetkazishga yordam beradigan bo'lsa, buzg'unchi deb hisoblanishi mumkin.

Davlat harakatlarining buzg'unchi soliq raqobati sifatida baholanishi ma'lum murakkabliklarga ega bo'lib, uning natijasi har doim ham bir ma'noli bo'lmaydi. Alohida soliq yurisdiksiyasi tomonidan olib borilayotgan fiskal siyosatning boshqa davlatlar va jahon iqtisodiyotiga zarar keltiruvchi belgilari odatda uning maqsadi, vazifalari, vositalari va oqibatlari orqali ochib beriladi. Bunday siyosatning asosiy maqsadi - hududlari soliq bazasini tashkil etuvchi va soliq to'lash manbai bo'lgan moddiy ne'matlarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan boshqa davlatlar hisobidan mablag'larni olishdir. Buzg'unchi soliq raqobatining vazifalari moliyaviy resurslarni jalb qilish va xorijiy kapitalni majburiy repatriatsiyadan himoya qilish uchun infratuzilmani tashkil etishdan iborat. Vositalari esa xilma-xil bo'lib, ularning tarkibi odatda soliqni tartibga solishning odatiy vositalaridan deyarli farq qilmaydi.

Davlatlararo darajada buzg'unchi soliq raqobatiga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar tobora faol amalga oshirilmoqda. Shunday qilib, 1998 yilda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) soliq gavanalari va buzg'unchi imtiyozli soliq rejimlari mezonlarini aniqlashga va buzg'unchi soliq raqobatiga qarshi chora-tadbirlarga bag'ishlangan "Buzg'unchi soliq raqobati: rivojlanayotgan global muammo" [8] hisobotini e'lon qilgan.


2009 yilda OECDning G-20 London sammiti yakunlari bo'yicha Xalqaro darajada qabul qilingan soliq standartlarini joriy etish bo'yicha OECD Global Forum tomonidan kuzatilgan yurisdiksiyalar to'g'risidagi joriy hisoboti nashr etildi. Ushbu hisobot adolatsiz soliq raqobati bilan bog'liq bo'lgan davlatlar va hududlar ro'yxatini uchta toifaga ajratdi:

- “oq ro‘yxat” - xalqaro soliq standartlari yetarli darajada joriy qilingan yurisdiksiyalar;
- “kulrang ro‘yxat” - xalqaro soliq standartlarini qabul qilish majburiyatini olgan, ammo ularni hali yetarli darajada joriy qilmagan yurisdiksiyalar;
- “qora ro‘yxat” - xalqaro soliq standartlarini qabul qilish majburiyatini olmagan yurisdiksiyalar.

Muayyan bir davlat doirasida soliq raqobati ikki xil bo‘lishi mumkin:

- vertikal (davlat subyekti va mahalliy birliklar o‘rtasida);
- gorizontaal (bir xil darajadagi hududiy birliklar o‘rtasida).

Soliq raqobatining bir nechta usullari mavjud (2-rasm).



2-rasm. Soliq raqobatining asosiy usullari

Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pgina olimlar soliq raqobatiga soliq imtiyozlari nuqtai nazaridan qaraydilar va ba’zi hollarda ularni sinonim deb hisoblashadi. Biroq, bunday ilmiy qarashni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Ammo buni tubdan noto‘g‘ri deb chetga surib qo‘yish ham mumkin emas. Chunki soliq rag‘batlari juda xilma-xil va u nafaqat soliq chegirmalari va imtiyozlarini, balki soliqqa tortiladigan subyekt tomonidan soliqlarni to‘lash bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega harakatlarni ham amalga oshirishning oqibati bo‘lgan soliq imtiyozlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, soliq raqobatining ayrim usullari rag‘batlantiruvchi salohiyatga ega. Masalan, pasaytirilgan daromad solig‘i stavkasi ma’lum bir mintaqa iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investisiya faoliyatini rag‘batlantiradi.

Shu bilan birga, muayyan mintaqa aholisining ehtiyojlarini qondiradigan barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyot iqtisodiy xavfsizlik kafolati, salbiy tashqi ta’sirlardan o‘ziga

xos “qalqon” vazifasini bajarishini, ayniqsa bu hozirgi xalqaro siyosiy vaziyatda yanada yaqqol namoyon bo‘lishini unutmash kerak.

Shuni ta’kidlash kerakki, ilmiy va amaliy adabiyotlarda ko‘pincha “g‘irrom soliq raqobati” tushunchasi qo‘llaniladi. Bunday holatda, gap milliy soliqqa tortishdan qochish uchun soliq boshpanalarining salohiyatidan foydalanish haqida gap bormoqda. Boshqacha qilib bu hodisani zararli soliq raqobati deb ham atash mumkin. Jahon iqtisodiy hamjamiyatining vakillari bunday hududlarni tugatish tarafdori. Ko‘pgina iqtisodchilarning fikricha ofshor yurisdiksiyalar faoliyati bilan bog‘liq soliq tizimining kamchiliklari, shuningdek, yurisdiksiya doirasida soliq boshpanalarini yaratish xalqaro huquqiy vositalarga murojaat qilish orqali bartaraf etilishi mumkin. Soliqlarni tartibga solish nuqtai nazaridan milliy qonunchilikning bunday raqobatiga barham berish maqsadga muvofiq.

Darhaqiqat, soliq raqobatining davlatdan kapitalning chiqib ketishi, ishchi kuchining chiqib ketishi, iqtisodiyotning yashirin sektorining o‘shishi va shu kabilarda o‘z ifodasini topadigan bir qator salbiy oqibatlari mavjud. Shu bilan birga, ijobiy jihatdan asosiy maqsadi investitsiya jozibadorligini oshirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va shu kabilarda bo‘lgan soliq raqobati hududni iqtisodiy rivojlantirishga yordam beradi.

Shu o‘rinda shuni ta’kidlashni istardimki, shakllanish bosqichida bo‘lgan soliq raqobati instituti, shubhasiz, soliq qonunchiligi samaradorligini oshirish vositasidir, chunki uni to‘ldiruvchi normalar ularning qonuniy bajarilishini, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida davlatning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan soliq intizomiga rioya etilishini rag‘batlantiradigan shart-sharoitlarni yaratadi.

Xalqaro tijorat operatsiyalarini soliqqa tortishning samarali tizimini yaratish umuman xalqaro iqtisodiy munosabatlarni izchil rivojlantirishning muhim shartidir.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning kengayishi soliq sohasida xorijiy elementli huquqiy munosabatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Chet el elementi sifatida soliq to‘lovchi (xorijiy shaxs) ham, soliq solish obyektini ham (chet elda olingan daromad; chet elda joylashgan mulk) ishtirok etishi mumkin.

Har bir davlatning soliq qonunchiligi o‘z hududida xorijiy huquq subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan tijorat faoliyati va aksincha, milliy subyektlar (soliq rezidentlari) xorijiy davlatlar hududida amalga oshiradigan faoliyat natijalarini soliqqa tortishning huquqiy rejimini belgilab beradi. Bunda, har bir davlat soliqqa tortish bazasini maksimal darajada kengaytirishga intiladi, buning natijasida soliq tizimlari o‘rtasida raqobat paydo bo‘ladi.

Bu sohadagi salbiy omillardan biri ikki (yoki undan ortiq) davlatlarning bir soliq solish obyektiga nisbatan soliq yurisdiksiyasining kengayishi natijasida vujudga keladigan va soliq yukini sezilarli darajada oshiradigan xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish hisoblanadi. Ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish xalqaro tadbirkorlik operatsiyalarini soliqqa tortish sohasida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Bu

xorij sarmoyasini amalga oshirish, xorijda olingan daromadlarni repatriatsiya qilish, umuman, xalqaro iqtisodiy hamkorlik chegaralarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish uchun zarur.

Xalqaro huquqning to‘laqonli subyekti sifatida O‘zbekiston dunyoning boshqa mamlakatlari bilan soliq sohasida hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlash bo‘yicha izchil siyosat olib bormoqda. 1993-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan soliqqa tortish sohasida xalqaro shartnomalar tizimini shakllantirish ustida ish olib bormoqda.

Dunyo mamlakatlari o‘rtasida ko‘p sonli soliq shartnomalari tuzilishi bir qator tan olingan xalqaro standartlarning rivojlanishiga olib keldi. O‘zbekiston tomonidan tuzilgan va tuzilgan shartnomalar OECD tomonidan ishlab chiqilgan kelishuv modeliga asoslanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish va daromad va kapitalga soliq to‘lashdan qochishning oldini olish to‘g‘risida 50 ta kelishuv mavjud. Bunday shartnomalar korporativ daromad solig‘i, shaxsiy daromad solig‘i va mulk solig‘i bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 4-moddasiga muvofiq yuqoridagi shartnomalar xalqaro xarakterdagi hujjat sifatida milliy qonunchilik normalaridan ustundir.

Ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish va daromad va kapital soliqlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olish to‘g‘risidagi tuzilgan shartnomalar tizimi O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorligini, yeng avvalo - o‘zaro investitsiyalarni jalb qilish va tashqi savdoni oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda ushbu turdagi 14 ta shartnoma mavjud. Shu bilan birga, MDHning qator mamlakatlari, shuningdek, Latviya, Ummon va Koreya bilan hamkorlik va tajriba almashish to‘g‘risida idoralararo bitimlar tuzildi. Davlat soliq qo‘mitasi ushbu shartnomalarni amalga oshirishda vakolatli organ hisoblanadi.

Boshqa davlatlarning soliq organlari bilan o‘zaro yordam va hamkorlik shartnomalari quyidagi imtiyozlarni beradi:

- teng huquqli asosda, soliqni buzish holatlarini aniqlashda va oldini olishda soliq nazorati sohasida shartnoma tuzayotgan davlatlarning mavjud imkoniyatlaridan foydalanish;

- soliq ma‘muriyatchiligi sohasidagi xorijiy davlatlar soliq organlarining ijobiy tajribasini o‘rganish va undan foydalanish;

- O‘zbekiston Respublikasi soliq xizmati xodimlarining kasbiy o‘sishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish.

Bugungi kunda ushbu turdagi 4 shartnoma MDHning qator davlatlari bilan amal qilmoqda. Ular yeksport-import operatsiyalariga, tovarlar va xizmatlarning o‘zaro yetkazib berilishiga qo‘shilgan qiymat solig‘i va aktsiz solig‘ini to‘lash tartibini tartibga

soladi, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, halol raqobat va tadbirkorlik subyektlari uchun teng imkoniyatlar yaratadi.

Ta'kidlash joizki, yuqorida qayd yetilgan xalqaro shartnomalarning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi, xalqaro bozorda mamlakatning iqtisodiy subyektlari manfaatlarini himoya qiladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Rossiya Federatsiyasi Hukumati soliq qonunlariga rioya qilish masalalari yuzasidan xalqaro hamkorlik va o'zaro yordamning qanchalik muhimligidan kelib chiqib va ana shu maqsadlarda bir-biriga iloji boricha ko'proq ko'maklashishga istak bildirib, 1993-yil 11-noyabr kuni Toshkentda "Soliq qonunlariga rioya qilish masalalari yuzasidan hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida"gi konvensiya tuzdi va unda quyidagilarga kelishib oldi:

Vakolatli soliq idoralari o'z tashabbusi bilan yoki yordam ko'rsatish haqidagi so'rovga ko'ra quyidagilarga nisbatan bir-birlariga axborot taqdim etadilar:

- korxonalar, ularning shoxobchalari va vakolatxonalarini qayd qilishda (jumladan, ularning joylashgan joyi, kimga bo'ysunishi, mulkchilik shakli va hokazolar haqidagi ma'lumotlar);

- yuridik va jismoniy shaxslar davlat va tijorat banklarida hisob raqami ochganlari, shuningdek, ulardagi bor pullar va tushayotgan mablag'lar xususida;

- yuridik va jismoniy shaxslarning ushbu Tomon hududida olingan barcha daromad turlari va soliq solish obyektlari, to'lagan soliq summalari va soliqqa tortish bilan bog'liq boshqa masalalar xususida.

Muayyan soliq to'lovchilarga taalluqli bo'lgan axborotlar maxfiy hisoblanadi va so'rov talab qilinayotgan soliq idorasi shartlariga muvofiq himoya qilinadi.

Olingan axborot ushbu Bitimda ko'zda tutilgan maqsadlardagina, jumladan, ma'muriy yoki sud ajrimligidagina Tomonlar orqali foydalanilishi mumkin. Boshqa maqsadlarda axborotdan faqat so'rov talab qilinayotgan tomon roziligi bo'lgandagina foydalanish mumkin.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak soliq raqobati va hamkorligi byudjetining asosiy qismini soliq tushumlari tashkil etadigan davlatlar uchun har doim ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qoladi. Bu borada quyidagi bir qator xulosa va takliflarni keltirishimiz mumkin:

1. Investitsiyalarni jalb qilish uchun kuchli soliq raqobati orqaliga kirishish mamlakat iqtisodiyoti uchun doim ham foydali bo'lmaydi. Soliq raqobati biznesni mamlakat chegaralarida o'z faoliyatini yo'lga qo'yish va mahalliy iqtisodiyotga hissa qo'shishga rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishni yaratishi mumkin bo'lsa-da, biroq bu daromadlar tengsizligini oshiradi, chunki kam ta'minlangan shaxslarga davlat xizmatlarining qisqarishi va davlat qarzining oshishi nomutanosib ravishda ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ushbu turdagi raqobat milliy suverenitetning eroziyasiga

olib kelishi mumkin, chunki mamlakatlar soliq stavkalarini pasaytirishga intilayotgan transmilliy korporatsiyalarning talablarini bajarishga zaruratini his qiladi.

2. Soliq sohasidagi hamkorlikka keladigan bo'lsak u xalqaro korporativ soliqqa tortishning yanada adolatli global tizimiga erishish yo'lidagi muhim va zarur qadamdir. Ma'lumotlar almashish va soliqlarni hisobot berish va topshirish bo'yicha aniq qoidalar va yo'riqnomalarni o'rnatish uchun birgalikda ishlash orqali mamlakatlar kompaniyalarning soliqlardan qochishning agressiv amaliyotlarini qo'llash imkoniyatlarini kamaytirishi va soliqlarning adolatli ulushini to'lashini ta'minlashi mumkin. Bu oshkoralik va javobgarlik nafaqat alohida hukumatlarga foyda keltiradi, balki global miqyosda yanada barqaror iqtisodiy muhitga hissa qo'shadi.

Umuman olganda, soliq sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurati jahon iqtisodiyotining o'zgaruvchan tabiati va milliy iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligi kuchayib borayotganini aks ettiradi. Biznes operatsiyalari yanada murakkab va ko'p millatli bo'lib borayotgani sababli, mamlakatlar yirik korporatsiyalarning mas'uliyatli va shaffof xatti-harakatlarini targ'ib qiluvchi tizimlarni yaratish uchun birgalikda ishlashi kerak. Shu tariqa, soliq hamkorligi faqatgina badavlat elitaga emas, balki barcha odamlarga foyda keltiradigan yanada adolatli moliyaviy tizimni yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlarning muhim tarkibiy qismidir.

3. Soliq bo'yicha hamkorlik soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olish, jismoniy shaxslar va korporatsiyalarning soliqlarning adolatli ulushini to'lashini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, jumladan, soliq to'lovchilar haqida ma'lumot almashish va mustahkam qonunchilik asoslarini joriy etish orqali mamlakatlar soliqdan qochishga qarshi samarali kurash olib borishi hamda ichki va xalqaro soliq qonunchiligiga rioya qilishni oshirishi mumkin. Soliq sohasidagi hamkorlikka ustuvor ahamiyat berish va soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini bartaraf etish bo'yicha qat'iy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali siyosatchilar davlat moliyasini himoya qilish va ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilmani rivojlantirish kabi ijtimoiy farovonlik maqsadlarini ilgari surishda yordam berishi mumkin. Pirovardida, samarali soliq hamkorligi fiskal mas'uliyatni rag'batlantirish va butun dunyo bo'ylab fuqarolar o'rtasida hukumat institutlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, 2019-yil 30-dekabr
2. Roin, Julie. Competition and evasion: Another perspective on international tax competition \ Georgetown Law Journal, March 2001
3. Zodrow, G.R. and Mieszowski, P., "Pigou, Tiebout «Property Taxation, and the Underprovision of Local Public Goods», - Journal of Urban Economics, 1986, 356-370.

4. Kanbur, Ravi and Keen, Michael, "Jeux Sans Frontieres: Tax Competition and Tax Coordination When Countries Differ in Size," \The American Economic Review, Vol. 83, No. 4, September 1993.
5. Council Directive 2011/16/EU of 15 February 2011 on administrative cooperation in the field of taxation and repealing Directive 77/799/EEC // OJ . – 2011. – L 64. – P. 1–12.
6. Schilcher, Michael. The Directives on the Mutual Assistance in the Assessment and in the Recovery of Tax Claims in the Field of Direct Taxation / Michael Schilcher // Introduction to European Tax Law on Direct Taxation; Ed: M. Lang, P. Pistone, J. Schuch. – Wien: Lind, 2008. – 186 p. – P. 172.
7. Kolesnik G.V., Leonova N.A. (2011) Model' nalogovoy konkurentsii yurisdiktsiy v usloviyakh lokal'noy konkurentsii nalogoplatel'shchikov. [Model of tax competition in the context of local competition of taxpayers.] // Matematicheskaya teoriya igr i yeye prilozheniya. T. 3. № 1. S. 60 – 80.
8. Levashenko A. (2011) Mezhdunarodnaya nalogovaya konkurenciya – faktor razvitiya innovatsionnoy deyatel'nosti [International tax competition as a factor of the development of innovative activity] // Ekonomikopoliticheskaya situatsiya v Rossii. № 1. S. 67 – 73.
9. Globalizatsiya i integratsionnyye protsessy v Aziatsko-Tikhookeanskom regione (pravovoye i ekonomicheskoye issledovaniye) / N.M. Bevelikova, N.G. Doronina, O.O. Zhuravleva i dr.; pod red. T.Ya. Khabriyevoy (2014). [Globalization and integration processes in the Asia-Pacific region (legal and economic studies) / ed. by N.M. Bevelikova, N.G. Doronina, O.O. Zhuravleva, T.Ya. Habrieva.] M.: IZiSP, INFRA-M, 2014. Spravochnaya pravovaya sistema «Konsul'tantPlyus».
10. Pinskaya M.R. (2013) Nalogovaya konkurenciya: Ot teorii k praktike. [Tax competition: from theory to practice.] M.: INFRA-M.
11. Troyanskaya M.A. (2014) O razgranichenii ponyatiy i roli nalogovoy konkurentsii i konkurentosposobnosti. [On the delimitation of the concepts and the role of tax competition and tax competitiveness.] // Upravleniye obshchestvennymi i korporativnymi finansami: Formirovaniye resursnogo obespecheniya innovatsionnoy ekonomiki: mat. mezhdunar. nauch.-prakt. konf., g. Saratov, 28 marta 2014 g. / pod obshch. red. Ye.A. Yermakovoy. Saratov: ITS «Nauka».